

The background features a complex, abstract design. It includes several overlapping circular patterns, some resembling gears or orbits. A central focus is a bright orange and yellow circular area with a blue and white checkered pattern below it. The overall aesthetic is technical and scientific, with various lines, arrows, and geometric shapes scattered throughout.

SCIENCE AND EDUCATION

ISSN 2181-0842

VOLUME 3, ISSUE 4

APRIL 2022

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN 2181-0842

VOLUME 3, ISSUE 4

APRIL 2022



www.openscience.uz

Executive Secretary

Tusmatova Nozima Inomovna

Editorial board

Z.Yaxshieva

Jizzakh State Pedagogical Institute, Doctor of Chemical Sciences

S.Sangwa

African Leadership University, Doctor of Business Administration

S.Otakulov

Jizzakh Polytechnic Institute, Doctor of Physical and Mathematical Sciences

M.A.S.Khasawneh

King Khalid University, Special Education, PhD

Sh.Akramova

Military-technical Institute of the National Guard, Doctor of Pedagogical Sciences

E.M.Colocassides

College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication

B.Sultonov

Tashkent Pharmaceutical Institute, Doctor of Technical Sciences

Ya.L.Chernyavskaya

Tyumen State Medical University, Candidate of Philological Sciences

A.Sidiqov

Tashkent Institute of Chemical Technology, Doctor of Chemical Sciences

W.B.Vidona

Edo State University, Anatomy, PhD

B.Kucharov

Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences

I.Eshmetov

Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences

M.Abdullaev

Andijan State University, Doctor of Historical Sciences

Z.Tojjeva

National University of Uzbekistan, Doctor of Geographical Sciences

N.Jiyanova

Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences

X.Qobulov

Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences

A.Nabiev

Tashkent Institute of Chemical Technology, PhD in Technical Sciences

A.Turgunbaeva

Namangan State University, PhD in Psychological Sciences

B.Xaynazarov

National University of Uzbekistan, PhD in Historical Sciences

M.Voxidova

Tashkent State Institute of Oriental Studies, PhD in Economics

A.Rahmonov

Republican Scientific-Practical Center, PhD in Pedagogical Sciences

G.Ochilova

Karshi Institute of Engineering and Economics, Candidate of Philosophical Sciences

B.Omonov

Karshi State University, PhD in Philosophical Sciences

O.Axmedova

Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Technical Sciences

G.Jumanazarova

Jizzakh State Pedagogical Institute, Doctor of Philological Sciences

T.Sabirjanov

Fergana Polytechnic Institute, Candidate of Technical Sciences

Sh.Ismoilov

Tashkent State Law University, Doctor of Sciences in Law

M.Rakhimov

Tashkent State Law University, Doctor of Philosophy in Law

L.Rakhimkulova

Tashkent State Law University, Doctor of Philosophy in Law

A.Sultonov

Jizzakh Polytechnic Institute, PhD in Economics

Mas'ul kotib

Tusmatova Nozima Inomovna

Tahririyat

Z.Yaxshiyeva

Jizzax davlat pedagogika instituti, kimyo fanlari doktori

S.Sangwa

African Leadership University, Doctor of Business Administration

S.Otaqulov

Jizzax politexnika instituti, fizika-matematika fanlari doktori

M.A.S.Khasawneh

King Khalid University, Special Education, PhD

Sh.Akramova

Milliy gvardiya harbiy-texnik instituti, pedagogika fanlari doktori

E.M.Colocassides

College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication

B.Sultonov

Toshkent farmatsevtika instituti, texnika fanlari doktori

Ya.L.Chernyavskaya

Тюменский государственный медицинский университет, кандидат филологических наук

A.Sidiqov

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori

W.B.Vidona

Edo State University, Anatomy, PhD

B.Kucharov

Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, texnika fanlari doktori

I.Eshmetov

Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, texnika fanlari doktori

M.Abdullayev

Andijon davlat universiteti, tarix fanlari doktori

Z.Tojjiyeva

O'zbekiston milliy universiteti, Geografiya fanlari doktori

N.Jiyanova

Toshkent moliya instituti, iqtisod fanlari nomzodi

X.Qobulov

Toshkent moliya instituti, iqtisod fanlari nomzodi

A.Nabiyev

Toshkent kimyo texnologiya instituti, texnika fanlari PhD

A.Turgunbayeva

Namangan davlat universiteti, psixologiya fanlari PhD

B.Xaynazarov

O'zbekiston milliy universiteti, tarix fanlari PhD

M.Voxidova

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, iqtisodiyot fanlari PhD

A.Rahmonov

Respublika ilmiy-amaliy markaz, pedagogika fanlari PhD

G.Ochilova

Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti, falsafa fanlari nomzodi

B.Omonov

Qarshi davlat universiteti, falsafa fanlari PhD

O.Axmedova

Buxoro muxandislik-texnologiya instituti, texnika fanlari PhD

G.Jumanazarova

Jizzax davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari doktori

T.Sobirjonov

Farg'ona politexnika instituti, texnika fanlari nomzodi

Sh.Ismoilov

Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari doktori

M.Rahimov

Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari falsafa doktori

L.Rahimkulova

Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari falsafa doktori

A.Sultonov

Jizzax politexnika instituti, iqtisodiyot fanlari PhD

TABLE OF CONTENTS / MUNDARIJA

EXACT SCIENCES / ANIQ FANLAR

| | | |
|----|---|----|
| 1. | Rustamjon O'ktamovich Siddiqov, Abror Qahramonovich Asqarov Blox funksiyasining hisoblash usullari | 22 |
| 2. | Sharofiddin Erkin o'g'li Fayzullayev Uchburchak elementlarining ba'zi bog'lanishlari haqida | 27 |
| 3. | Нилуфар Окбаева Матрицы и детерминанты из биномиальных, обобщенных биномиальных коэффициентов | 33 |
| 4. | Shahlo Shavkatovna Sayfullayeva Gipergeometrik funksiyaning qo'llanilishi haqida | 42 |

NATURAL SCIENCES / TABIIY FANLAR

| | | |
|-----|--|-----|
| 5. | Тулкин Турдимович Адиллов, Мадраим Хасанович Сариккулов Проблемы экологии и здоровье населения на современном этапе | 50 |
| 6. | Н.Фарманов, У.Файзуллаев, М.Бегматова Далачой (hypericum perforatum L.)ни дориворлик хусусиятлари ва кимёвий таркиби | 59 |
| 7. | Дилдора Илхомқуловна Маҳмудова, Анвар Кабирович Абдушукуров Мухриддин Саидович Юсуфов 4-гидроксиацетанилид хлорацетилхлорид билан хлорацетиллаш | 65 |
| 8. | Dilrabo Ibrohim qizi Ibrohimova, Zuhra Abduqodirovna Nuruzova OITSni davolashda CRISPR/CAS9ni qo'llanilishi | 70 |
| 9. | Sulaymon Pirumqul o'g'li Turimov, E'tiborxon Omon qizi Odiljonova Marjona Ravshan qizi Norqulova Alkanlarning gomologik qatori va va ularning xalqaro nomenklatura bo'yicha nomlanishi | 73 |
| 10. | Sadbarxon Abdulkarimovna Mavlanova, Dildora Nodir qizi Sheraliyeva Qandli diabet kasalligi kelib chiqish sabablari va dastlabki belgilari | 77 |
| 11. | K.R.Yo'ldoshev, A.O.Ruzmetov, D.R.Ibadullayeva Xorazm viloyati sharoitida uchraydigan ryaskadoshlarning tur tarkibi va ularning biofiltrlik xususiyatlari | 82 |
| 12. | Sh.O.Safayev, Y.R.Taxirov, S.B.Sadikova, R.Sh.Kuryazov, D.A.Dushamov 6-brombenzoksazolin-2-onni katalitik aroillash | 88 |
| 13. | Taxmina Sunnat qizi Begmatova Endemic types. Definition and protection | 94 |
| 14. | Kumush Sherali qizi G'oyibnazarova, Umida Shavkat qizi Narzullayeva Uyqu buzilishlari | 97 |
| 15. | Нозимбек Нумонбек угли Ахмедов Качество жизни больных глаукомой, получающих консервативное лечение | 102 |
| 16. | Нозимбек Нумонбек угли Ахмедов Качество жизни больных глаукомой, получивших хирургическое лечение | 108 |
| 17. | Рустамжон Нейматжон ўгли Махмудов Страбизмнинг замонавий таснифи | 115 |
| 18. | Рустамжон Нейматжон ўгли Махмудов “Оғир” кўз синдроми ва паталогик корреспондент тўрпарда (акс) бўлган болаларда жаррохлик амалиётидан кейин бинокуляр функцияларнинг ҳолати | 119 |
| 19. | G'ayrat Muxammedovich Salimov, Abror Xasanov Sog'lom turmush tarzining asosiy omillari | 124 |
| 20. | Anvar Ismoilovich To'rayev Buxoro vohasiga turkmanlarning ko'chishi | 134 |

Buxoro vohasiga turkmanlarning ko'chishi

Anvar Ismoilovich To'rayev
mahmudorziyev@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro vohasida istiqomat qilib kelayotgan turkmanlarning bu hududga kelib joylashuvi tarixi, hozirgi kunda turkman urug'-qabilalari nomi bilan yuritilib kelinayotgan qishloqlarning paydo bo'lishi tarixiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, turkmanlarning majburan ko'chirilish sabablari, Buxoro shahridagi Buyrobofon ko'chasi toponimikasi, u yerda yashayotgan turkmanlarning salmog'i, mashg'ulot turlari ham yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro vohasi, Xiva, Amudaryo, Samarqand, Qashqadaryo Salirlar, Qorako'l, Buyrobofon, xidireli, sakarlar, sariklar, ersarilar, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik.

Migration of turkmens to Bukhara

Anvar Ismoilovich To'rayev
mahmudorziyev@gmail.com
Bukhara State University

Abstract: This article focuses on the Turkmens living in the Bukhara oasis, the history of their resettlement, the appearance of villages under the titles of Turkmen tribal clans. And also, the reasons for the pastoral migration of Turkmens, the toponymy of Buyrobofon street in the city of Bukhara, the number of Turkmens living here and their occupations

Keywords: Bukhara oasis, Khiva, Amu Darya, Samarkand, Karakul, Buirabofon, Salirs, hidireli, sakary, sariki, ersari, agriculture, cattle breeding, handicraft.

Buxoro vohasi va unga tutash hududlarda yashovchi o'zbeklar hayotiga uzoq davrlarda turli xil etnik komponentlar qo'shilib, ularning madaniy hayotlarida o'zgarishlar bo'lishiga olib kelgan. Bu o'zgarishlarda ko'chib kelgan turkmanlarning ham oz bo'lsada ta'siri bor. Eron shohi Nodirshoh 1736-1747 yillarida Turkistonda hukumronlikni o'rnatgan vaqtda, bosib olingan hudud aholisiga jabr-zulum, azobu-uqubatlarni soladi. Eronlik bosqinchilar zulmidan aziyat chekkan turkmanlar, shu jumladan chandirliklar ularga qarshi tinimsiz kurash olib borganlar. Doimiy qarshilik

qilib kelgan chandirliklardan o'ch olish maqsadida ularni Erondan shimol tomonga, Buxoro va Xiva xonligi hududlariga keyinchalik ular birlashmasliklari uchun birbirlaridan uzoqroq joylarga ko'chirdi. Zero, bu davrda Buxoro va Xiva xonlari uning ta'sir doirasida bo'lgani uchun Eron shohining qaroriga qo'shilmasdan iloji qolmaydi. Buxoro amirligida yoshi keksa, chandirning bir nechta urug'i vakillariga qarindoshlaridan uzoq tumanlardan yer "sovg'a" etilishi natijasida, Buxoro vohasida Chandir qishloqlari bir joyda emas balkim, bir-biridan uzoq bir-necha aholi manzillar vujudga kelgan. Buxoro chandir turkmanlarining bugungi kunga qadar o'zaro yaqin madaniy aloqalari yaxshi saqlanib qolgan.

XVII-XIX asrlarda bir guruh o'rta Amudaryo turkmanlari Zarafshon va Qashqadaryoga siljib o'zbeklar, tojiklar, arablar va boshqa turkman urug'lari orasiga kirib birga yashaganlar. Tadqiqotchilar ular orasida quyidagi turkman urug'lari bo'lganligini takidlaydilar: Salirlar, xidir-eli, sakarlar, sariklar, ersarilar va boshqalarni etirof etadilar. Ular mahalliy aholiga jiddiy tasir o'tkazish bilan birga o'zlariga ham mahalliy aholining o'ziga xos madaniyati ta'sir ko'rsatgan.

Bu jarayonlar shubhasiz, Amudaryo atrofida yashovchi, quyi Qashqadaryo va Zarafshon vohasida yashovchi xalqlarning etnik va madaniy-iqtisodiy aloqalar davom etkanligidan dalolat beradi. Bularni ular o'rtasidagi savdo-sotiq, ijtimoiy jarayonlar oila va nikoh munosabatlarida ko'rishimiz mumkin. Xorazmdan chiqqan bir qism turkmanlar Qorako'l vohasiga kelib o'rinishganlar. Ko'chmanchi turkmanlarning "eski" urug'i Amudaryo atroflaridan Qorako'l vohasiga ko'chib o'tib, so'ngra XIX asr ikkinchi yarmida Samarqand vohasi va Qashqadaryo hududlariga ko'chib o'tganlar.

XVIII asrda bir guruh xidireli turkmanlari Amudaryo qirg'oqlaridan kelib, Buxoro shahrining Buyrobofon ko'chasiga kelib joylashganlar. Buyrobofon mahalla oqsoqoli Qudratov Fattullo bobo bilan suhbatlashganimizda, bu yerga kelgan xidirelilarning asosiy mashg'uloti bo'ya to'qish bo'lganini ta'kidlab o'tdi. Shundan ko'cha nomi kelib chiqqan. Bu joy hozirda Ark muzey qo'riqxonasi zindon qismining kunchiqar tomonida joylashgan ko'cha hozirda Buyrobofon nom bilan ataladi[1]. Ularni to'qigan bo'yralaridan keng jamoatchilik, saroy ayonlari uylarining pol qismi uchun to'shak vazifasida foydalanganlar.

Buyrobofon eng katta guzarlardan sanaladi. Aholi soni jihatidan ko'p. Ular turkcha suzlashib, ikkiga bo'linishardi. Janubiy tomoni xorazmlik o'zbeklar, shimoliy tomoni esa chorjo'ylik turkmanlar edi. Ular Shohmurod buyrug'i bilan kuchib kelishgan. Shohmurod Xorazim xoni bilan kurashib, g'aliba qozongan, ularni shahar markaziga olib kelib, lekin joy bulmagani, uchun ularga ana shu yerdan joy bergan, Yana bir qism turkmanlar asa joy yo'qligidan Qorako'l tumaniga ketishgan. Xorazmlik va turkman Xidirellilar avval birgalikda yashashgan, Lekin amir Olimxon davrida har bir elat o'zining oqsoqolini tayinlab, ikkiga bo'linishgan, ikki guruhning

ham kasbi buyroboflik bo'lgan. Guzarda ularning o'z bozorchalari ham mavjud bo'lgandi. Shuningdek, guzarning anchagina aholisi sobungarlik ham qilishardi.

Buxoro shaharining tiklanishini mang'itlar sulolasidan bo'lgan, 1775-1800 yillarida hukumronlik qilgan amir Shohmurod nomi bilan bog'laydilar. U Marvni bosib olgandan so'ng u yerdan taxminan 17 yoki 30 minggaacha aholini shaharga ko'chirtirib kelgan. Buyrobofon mahallasida yashovchi aholi o'zlarining bu yerga ko'chib kelganlarini Amir Shohmurod nomi bilan bog'laydilar. Buyrobofon aholisi ikki qismga-o'zbek-xorazmiylar (Urganjiyon) va turkman qabilalaridan Xidirelidan iborat.

Ushbu muallifning Buxoroga oid ikkinchi kitobi "Buxara XIX-nachala XX v." da qayt etilishicha, Shohmurod buyrug'i bilan (XVIII asr oxiri) Buyrobofonga ikki ming oila ko'chirilib keltirilgan. L ekin ba'zi bir ko'chib kelganlarga shahar hududi tordek ko'rinib, shaharda yashashni xohlamay Kogondan keyin joylashgan Chetarik hududiga, qamishlar o'sib turgan botqoqliklardan iborat bo'lan manzilga ko'chib o'tdilar. Chunki, ularga bo'yra to'qish uchun qamishlar kerak edi. Boshqa bir qism turkmanlar G'ijduvonning Qumoq qishlog'iga borib o'rnashadilar. Bu yerda yashovchilarning farzandlari o'zlarini Chetarikda yashovchilar bilan qarindosh hisoblaydilar. Ular bilan doimiy aloqada bo'lib, to'y va a'zalarda birga bo'ladilar.

Vaqt o'tishi bilan Qumoq qishloqqa ko'chgan turkmanlar o'sha hududning mahalliy aholisiga nisbatan kamchilikni tashkil qilganligi sababi, shu yerdagi aholi tarkibiga singib ketgan deyish mumkin. Chunki, hozirda bu qishloq aholisi o'zlarini turkman deb bilishmaydi. Demak, Buxoroga ko'chirilib keltirilgan turkmanlar xo'jalikda dehqonchilik, chorvachilik bilan birga, aholining ehtiyojlarini qondirish maqsadida hunarmanchilikda ma'lum bir sohasini kasb qilib olganlar. Birgina hozirda Buxoro shahrida yashab qolgan turkmanlar o'zlarini kasbi Buyroboflik bo'lganligi uchun ushbu nom bilan yuritilib kelinmoqda.

Amir Shohmurod boshqaruv davrida Buxorodagi turli elatlarni (qabila va urug'larni) markaziy hokimiyat atrofida birlashtirib, uyushqoqlik bilan harakat qilishga chaqirgan. Chunki, etnik nizolar markazlashgan davlatni qurishga to'sqinlik qilard edi. Shuningdek, mamlakatda qo'l mehnat kuchiga bo'lgan ehtiyoj tufayli, ko'chirilib keltirilgan yoki o'z istagi bilan kelgan aholiga nisbatan davlat tomonidan g'amxo'rlik qilinib, yerlar berilgan.

Buxoroga kelgan turkman ichida bir vaqtning o'zida xo'jalining barcha tarmoqlar ya'ni dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ulanganlar aholining kam foizni tashkil qilgan. Chunki, kelib joylashgan turkmanlarning ajdodlari ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi hayot tarzida yashaganliklari uchun keyingi avlodlar ham ko'proq chorvachilik bilan band bo'lganlar. Qolaversa, turkman aholi yashab kelgan hududlarining ko'p qismi cho'l va yaylovlardan iborat bo'lganligi uchun chorvachilik xo'jalik turi keng tarqalgan. Lekin, Chandir daryo,

Amudaryo havzalarda yashab kelgan turkmanlarning aksariyati dehqonchilik bilan band bo'lganligi uchun kelib o'rinishgan joylarida ham suv va unumdor tuproq bor yerlarda yashashga intilganlar. Turkmanlar ichida bitta xo'jalik tarmog'i bilan shug'ullanganlar ko'pchilikni tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda, o'rganilgan manbalar va dala tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, turkmanlarning Buxoro vohasiga ko'chib kelishlari bir davr yoki aynan bir hukumdorning topshirig'i, olib borgan siyosati orqali amalga oshirilmagan. Bu tarixiy davrlar mobaynida yuz bergan ijtimoiy, siyosiy, tabiiy omillar ta'siri bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. MZ Orziev. The second world war and the unopened afghan front. Scientific reports of Bukhara State University 4 (3), 243-249.
2. MZ Orziev, AK Akhmatov. The channel from Sirdarya to bukhara: truth or fraud. Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 234-239
3. MZ Orziyev, BB Yunusova. Difficult ways edifying education. European conference on education and applied psychology, 72-77.
4. MZ Orziev. Материальная поддержка типографии, созданной в бухарском эмирате. Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные ...
5. KJK Orziyev Mahmud Zayniyevich. the influence of bukhara priests on the socio-political life of the timurids. The american journal of social science and education innovations 3 (04), 544-551
6. UB Sobirov, Orziyev M.Z. History of border conflicts between the states of bukhara and afghanistan in the second half of the 18th century. Central asian journal of social sciences and history 2 (4), 115-123
7. M Orziyev. Россия протекторати ўрнатилиш жараёнида бухоро амирлиги ва усмонли турк давлати муносабатларироссия протекторати ўрнатилиш жараёнида бухоро амирлиги ва усмонли турк давлати Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
8. M Orziyev. "Туркистон тўплами" да афғон туркистони бекликларининг сиёсий тарихига оид айрим маълумотлар (XVIII-XIX асрлар). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
9. M Orziyev. Афғонистон давлатининг ташкил топиши ва xviii аср иккинчи ярмида бухоро-афғон муносабатлари. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
10. M Orziyev. On the aspects of zahiriddin muhammad babur's political activity related to bukhara. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)

11. M Orziyev. Амир темур сиёсий фаолияти ва бухоро уламолари. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
12. M Orziyev. On the role of bukhara in the development of science and culture during the reign of amir temur and the timurids. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8)
13. M Orziyev. Rossiya protektorati o'rnatilishi jarayonida Buxoro amirligi va Usmonli Turk davlati munosabatlari: Rossiya istilosi davrida Buxoro davlati va Usmoniylar munosabatlari manba va Центр научных публикаций (buxdu. uz) 1 (1)
14. Jurabek Majidov. Основные направления образовательного комплекса на основе экономико-математического моделирования. *Academicia an international multidisciplinary research journal*. 2020. 12.
15. JJ Majidov. Glimpses from the history of the amudarya flotilla at the end of 19th-beginning of the 20th century (on the basis of the proceedings of "Turkestan collection"). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 2 (2)
16. MJ Jalilovich. Transport and road construction issues in bukhara academicia an international multidisciplinary. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 1 (1)
17. J Majidov. XX asr 70-йилларининг 2-ярмида Бухорода телефон хизмати хусусида. *Academicia an international multidisciplinary research journal*
18. J Majidov. Наземный и воздушный транспорт в СССР. *Academicia an international multidisciplinary research journal* 2020. 1.
19. J Majidov. XX asr boshlarida Eron matbuotining Turkiston va Buxoroga tarqalishi: Turkiston to'plami materiallari asosida. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (4)
20. J Majidov. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amudaryo flotiliyasi faoliyati tarixidan (Turkiston toplami materiallari asosida). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (1)
21. J Majidov. Road and transport issues in Bukhara as a social problem.
22. J Majidov. Бухоро халқ совет республикасида куруклик ва ҳаво транспорти: ечим ва муаммолар. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (5)
23. J Majidov. XX asrning ikkinchi yarmida Buxoroda yo'l qurilishi masalalari (Buxoro haqiqati gazetasi ma'lumotlari asosida). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (7)
24. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. *Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.*
25. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. *Psixologiya ilmiy jurnali*. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

26. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. *Psixologiya ilmiy jurnali*. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

27. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. *Psixologiya ilmiy jurnali*. 2021 yil, 3 son 98-106 b.

28. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Авезов О.Р. *Psixologiya nazariyasi va tarixi*. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.

29. Olimov L.Ya. *Shaxs psixologiyasi*. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.

30. Олимов Л.Я., Эшов Э.С. Авезов О.Р. Девиант хулқ-атвор психологияси. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 420.